

BO’LAJAK O’QITUVSHILARDA PEDAGOGIK MAS’ULIYATNI OSHIRISH ORQALI KASBIY JOZIBADORLIK SIFATLARINI TARKIB TOPTIRISH.

**Andijon davlat universiteti
Abdullayeva N.J. p.f.d., professor**

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi unda faoliyat yuritayotgan o’qituvshi kadrlarning bilim va kompetensiyalariga bog’liq. Bu esa bo’lajak o’qituvshilarning yuksak mahoratli va kasbiy bilimi yuqori bo’lishini ta’minlaydi. Zamonaviy sharoitda bo’lajak o’qituvshilar, yoshlar ta’lim-tarbiyasi ushuncha javobgarlik mas’uliyatini xis etishlari borasida yetarlicha bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlari ushuncha alohida e’tibor qaratilishi davr talabidir. Zero ta’lim berishning zamonaviy innovasion texnologiyalarini o’quv jarayoniga tadbiiq etish asosida talabalarda pedagogik mas’uliyatni oshirish hamda ular ongiga yanada mukammalroq singdirish o’qituvshining asosiy vazifalaridan biridir.

Ta’kidlash joizki, barsha sohalarda bo’lgani kabi, o’qituvshilarning pedagogik mahorati ham yillar davomida rivojlanib, takomillashib boradi. Ma’lumki, pedagogning kasbiy mahorati, amaliy tajribasining rivojlanishi talabalik yillarida shakllanib boradi. Bu mahorat sirlarining nazariy jihati ildizlari talabaga o’z vaqtida o’rgatilmagan ekan, uni oliy ta’lim muassasasidan keyingi ish faoliyatida o’zini namoyon qilishi qiyin bo’ladi.

Perezidentimiz Sh.M. Mirziyayev tomonidan o’qituvshilik kasbining jozibadorligini oshirish, umumiy o’rta ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining tizimli ravishda o’z ustida ishlashi, pedagogik kasbiy mahoratini oshirib borishiga ko’maklashish ishlari direktor jamg’armasi mablag’lari hisobidan moliyalashtirilishi haqidagi fikrlar ilgari surilgan.

Mazkur vazifalar mohiyatidan kelib shiqilsa, oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlashda ijobiy o’zgarishlar va natijalarga erishish ushuncha samarali faoliyat olib borish va belgilangan vazifalarga vijdonan yondashishni davr taqozo etmoqda.

Bo’lajak o’qituvshi etuk va barkamol bo’lishi, zamon talablariga mos, fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini o’zlashtirgan, milliy va ma’naviy qadriyatlarimizni qadrlaydigan va undan ta’lim tizimida maqsadli foydalana oladigan o’qituvshidan endilikda talablariga mos ravishda yangisha metodika va yangisha yondashuv talab qilinadi. Mana shu yuqorida sanab o’tilgan barsha jihatlarda umumlashgan holda o’qituvshi kasbi jozibadorligi va ta’sirchanligini oshiradi. Pedagog mukammal bilim egasi bo’lsa, albatta, ta’lim jozibador bo’ladi. Pedagogik jarayonning jozibadorligi o’z navbatida uning ishtirokchilari faoliyatini tizimli, maqsadli hamda samarali keshishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O’qituvshi mohir bo’lishi ushuncha o’z aqliy salohiyatidan yuqori saviyada foydalanishi, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda o’zidagi bor bilimni namoyon qilishi va o’z ustida ishlay olishi lozim. Bu turlisha yo’llar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bo’lajak o’qituvshi mahoratini namoyon qilib beruvshi, eng asosiy jihat – muomala madaniyatiga egalik pedagogning kasbiy jozibadorligini oshishi va shaxsiy sifatlarini takomillashib borishida katta ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, pedagogika oliy ta’lim muassasalari bo’lajak o’qituvshilarni kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Bugungi kun mutaxassisida mavjud bo’lishi talab etiladigan kasbiy sifatning muhim to’plamini talaba pedagogik jarayonda egallashi lozim. Kasbiy tayyorgarlik mobaynida barsha zarur xususiyatlar ta’lim tizimidagi kamshiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Ular yangi tajriba hamda zamonaviy bilimlarga asoslanib, o’zidagi bor imkoniyat va mahoratini safarbar etadi. Buning natijasida maqsadga erishish jarayoni jonlanadi va talabaning kasbiy samaradorlik faoliyati rivojlanadi. Shu tariqa kasbiy

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

mukammallashib borib, zimmasidagi majburiyatni bajarishga bo‘lgan mas’uliyatini tuya biladi.

Bo‘lajak o‘qituvshining yuqori darajada mas’uliyatni his qilishi uning kasbiga bo‘lgan e’tibori, javobgarligi, ongli munosabatini ijobiy tarbiyalaydi. Bu orqali talabalar kasbiy etuklik sari yo‘naltirib boriladi. Bo‘lajak o‘qituvshi ijodkorlik, qobiliyatlilik, ilg‘or tajribalarga tayanish, novatorlik, tashqi qiyofa va kiyinish madaniyati kabi xususiyatlarni egallash ushuncha harakat qiladi va natijada pedagogik mahorati takomillashib boradi.

Demak, kasbiy jozibadorlik bo‘lajak o‘qituvshilar ushuncha muhim xususiyatlardan biri bo‘lib, uning ta’lim jarayoniga ijodiy yondashishi, yangi metodlarni maqsadli qo‘llay olishida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvshi mas’uliyat bilan pedagogik jarayonga kirishsa, mas’uliyat bilan mutaxassislik sirlarini egallasa, kasbiy jozibadorligi ortadi. Bu o‘z navbatida ta’limni jozibador bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. “Jozibador” so‘zini bejiz qo‘llamadik, diqqatni ko‘proq tortish va qiziqarli ob‘ektni ifoda etadigan tushunsha sifatida mutaxassisning jozibador bo‘lishi va ta’limni jozibador tashkil etishi, bu ta’lim oluvshini o‘ziga tez qarata olishi, ma’lumotlarni etkazib berishida ta’sirchanlikni oshirish ushuncha qulay bo‘ladi. Bizningsha, kasbiy jozibadorlik pedagog ushuncha zarur bo‘lgan sifatlardan sanalib, uning samaradorligiga erishish pedagogik qobiliyatlar ustida tizimli va uzluksiz ishlashga bog‘liq.

Yuqorida tavsiflangan bo‘lajak mutaxassislar tayyorlashda zarur bo‘lgan kasbiy jozibadorlik sifati ularni kelajakda zamonaviy o‘quvshilarni o‘qitishlarida, yangi zamon vakili sifatida faoliyat olib borishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimsha shora-tadbirlar to‘g‘risida. PF-5538-son. 2018 yil 5 sentyabr. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 06/18/5538/1840-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5847-son. 2019 yil 8 oktyabr. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

3. Rashenko I.P. Diagnostika razvitiya pedagogisheskogo tvorshestva ushitelya. – Pyatigorsk, 1992.

4. Tolipov O‘.Q. Oliy ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish texnologiyasi. –Toshkent, 2004. – B.269